

## ORGANIZMNING GEPATIT HOLATIDA TO'QIMALI BIOSTIMULYATORLARNING IMMUNITET TIZIMIGA TA'SIR MEXANIZMLARI

Allamuratov M., O'zbekiston Milliy Universiteti  
Jumaqulova G.S., O'zbekiston Milliy Universiteti  
Ikromova M. A., Qarshi davlat universiteti

*Kalit so'zlar: embriologlar, gistologlar, immunolog, endokrin kasalliklar, yuqumli kasalliklar, immunitet tanqisligi.*

Immunitet tizimining rivojlanishi rivojlanishning prenatal davrida, shuningdek tug'ilgandan keyin organizmga ta'sir qiluvchi turli xil endogen va ekzogen omillar majmuasi bilan belgilanadi. So'ngi o'n yilliklarda embriologlar, gistologlar va immunologlarning alohida e'tibori prenatal davrda turli omillar ta'siriga qaratilmoqda, chunki ular bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, markaziy va pereferik organlar rivojlanishini "dasturlash" mumki [3,1]. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, vitaminlar, mikro-makroelementlar, oqsillar va boshqalarning ozuqaviy yetishmasligi, endokrin kasalliklar, yuqumli kasalliklar, homiladorlik davrida bir qator dori- darmonlarni qabul qilish nasl immunitet tizimining faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi [2,3].

**Tadqiqotimizning maqsadi:** Ekspremental gepatit holatida to'qimali biostimulyatorlarning immun tizimiga ta'siri samaradorligini baholashdir. Tadqiqotda lokal gemoliz, immunizatsiya usullaridan foydalanilgan, ikkilamchi immun tanqislik modeli sifatida toksik gepatit chaqirilgan. Tajribada oq sichqonlar asosiy obyekt hisoblanadi. Sichqonlarda ekspremental gepatitni qo'zg'atish uchun, uch kun mobaynida CCL<sub>4</sub> 20 % li eritmasini 0,2mg/kg dozada intra-pretoneal aok qilingan. Taloqda antitana hosil qiluvchi hujayralar sonini aniqlash (AHQHS) va gemopoetik tizimning holatini aniqlash uchun eksprement hayvonlari beshta guruhga ajratilgan (har bir guruhda 10 ta sichqon mavjud). Bir vaqtning o'zida sichqonlar 2x10<sup>8</sup> dozada qo'y eritrotsitlari bilan immunizatsiya qilinadi.

Yetti kundan keyin ularni so'yildi. Sichqonlarda immunitet tanqisligini tuzatish uchun to'qima-peptid birikmali biostimulyatorlardan mushak ichiga 0,1 mg/kg, 0,3 mg/kg, 0,5 mg/kg, 1,0 mg/kg tana vazniga mos dozalarda AOK qilingan.

**Tajriba natijalariga** ko'ra, buzilmagan hayvonlarda taloqning AHQHS mavjudligi aniqlandi. Immunitet tanqisligi bo'lgan hayvonlarda (5240±874), (538±98\*) bo'lgan. Buzilmagan hayvonlarga nisbatan 8,5 marta past. Besh kun davomida to'qimali biostimulyatorlarning kiritilishi immunologik reaktivlikning ortishi bilan immunitet tizimini tiklashi aniqlandi. Taloqdagi AHQHS timogen bilan 3,3 barobar ortdi va (1532±301\*\*) ni tashkil etdi.

To'qimali biostimulyatorlarni yuborish bilan taloqdagi AHQHS soni deyarli besh marta ya'ni 4,6 marta ortdi (2712±32\*\*).

Shunday qilib, yuqoridagi tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, to'qimali biostimulyatorlar organizmda aniq immunostimulyatsiya qiluvchi xususiyatlarga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova M.T., Majidov A.V. Vliyaniye pestitsidov na antiteloobrazovaniye i immunogeluyatorniye populyatsii limfotsitov u mishey. // Immunologiya 7 – 2001. - № 2. – s. 33-35.
2. L.V.Kovalchuk, G.A. Ignatyeva, L.V.Gankovskaya. Immunologiya: praktikum: kletochniye geneticheskiy metodi issledovaniye: ucheb. posobiye dlya studentov vuzov/ Moskva: GEOTAR – Media, 2010.- 176 s.
3. N.V. Yaglova, C.C. Obernixin Razvitiye immunnoy sistemi potomstva posle immunostimuliruyushogo vozdeystviya v ranniye sroki beremennosti // Moskva INFRA – M 2021, - 1, 2 s.
4. Xayrullayeva L.M. Ochlikni neyroendokrin tartibga solish orqali semizlikni davolashda o'simlik birikmalaridan foydalanish.Xorazm Mamun Akademiyasi,2023.-14 b
5. Rahmatullayev Y. Sh, Avliyoqulova M. B, Hakimova M. A, O'zbekiston respublikasining janubiy viloyatlari sharoitida maktab o'quvchilarining amaldagi ovqatlanishi va jismoniy taraqqiyoti.Xorazm Ma'mun Akademiyasi- 2023.
6. Avliyoqulova M.B, Rahmatullayev Y.Sh, “Qarshi shahri sharoitida maktab o'quvchilarining antropometrik ko'rsatkichlari” Ma'mun akademiyasi-2024.
7. Rakhmatullayev Y., Kurbanov A.Sh., Hazratova H.N. Physical Development of Rufal and Urban School Children and its Comporative Characterics. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258,Vjl.25,Issue 4,2021,Pages.7603-7608 Received 05 March 2021;Accepted 01 April 2021.
8. Hazratova H.N., Kurbanov Sh.K., Rahmatullayev Y.Sh., Buranova G.B. Physical Develompent of Primary Class Students. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDIAL AND NATURAL SCIENCES. Vol:04 Issue:05. Sep-Oct. 2023 ISSN: 2660-4159. 330-331 p.